

**“OQ” RANGNI IFODALOVCHI O‘XSHATISHLARDA SALBIY
KONNOTATSIYANING IFODALANISHI**

Abdujalilov Ma’rufjon Islom o‘g‘li

Guliston davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

marufjonabdujalilov7gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillaridagi oq rang bilan bog‘liq salbiy o‘xshatishlar semantik, lingvomadiy va konnotativ jihatdan taqqoslab o‘rganilgan. Maqolada o‘zbek va rus tillariga xos bo‘lgan o‘xshatishlar misolida kasallik aks etishi aniqlangan. O‘xshatishlarning turlari va strukturasi ham tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, rang semantikasi, ijobiy semantika, metafora, milliy-madaniyat.*

**ВЫРАЖЕНИЕ ОТРИЦАТЕЛЬНОЙ КОННОТАЦИИ В
СРАВНЕНИЯХ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ ЦВЕТ “БЕЛЫЙ”**

Абдужалилов Маруфжон Ислам углы

Исследователь Гулистанского государственного университета

marufjonabdujalilov7gmail.com

***Аннотация:** В данной статье сравниваются и исследуются отрицательные сравнения, связанные с белым цветом в узбекском и русском языках, с семантической, лингвистической и коннотативной точек зрения. В статье установлено, что болезнь отражается на примерах сравнений, характерных для узбекского и русского языков. Также анализируются типы и структура сравнений.*

***Ключевые слова:** сравнение, устойчивое сравнение, цветовая семантика, позитивная семантика, метафора, национальная культура.*

EXPRESSION OF A NEGATIVE CONNOTATION IN COMPARISONS REPRESENTING THE COLOR "WHITE"

Abdujalilov Ma'rufjon Islom ogli

Researcher of Gulistan State University

marufjonabdujalilov7@gmail.com

Annotation: *In this article, negative similes related to the color white in the Uzbek and Russian languages are compared and studied from the semantic, linguistic and connotative points of view. In the article, it was determined that the disease is reflected in the examples of similes typical of the Uzbek and Russian languages. The types and structure of similes are also analyzed.*

Key words: *simile, stable simile, color semantics, positive semantics, metaphor, national culture.*

KIRISH.

Bugungi jahon tilshunosligida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda lisoniy hodisalarning mohiyatini ochishda inson omilini hisobga olish an'anasi etakchilik qilmoqda. Olam lisoniy manzarasining shakllanishida tabiiy olam haqidagi dastlabki ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ma'lumki, turli tillarda oq eng birinchi shakllangan rang hisoblanadi. Bu rang, asosan, yorug'lik, yaxshilik bilan assotsiatsiyalanadi. Deyarli barcha tillarda oq rangni bildiruvchi nominativ birliklar mavjud va bunday so'zlar bilan bog'liq metafora, o'xshatishlar bor. Oq leksemasi bilan nafaqat ijobiy semantika, balki kasallik holatlari mavjud ekan. Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida oq leksemasi bilan bog'liq o'xshatishlarda noxush holatlarning ifodalanishi tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida M.Mukaramov tomonidan 1976-yilda "O'zbek tilida o'xshatish" mavzsidagi tadqiqot amalga oshirilgan. Mazkur monografiyada o'xshatishning morfologik xususiyatlari, uning yondosh hodisalarga munosabati kabi masalalar o'rganilgan. R.Qo'ng'urov "O'zbek tilining tasviriy vositalari" monografiyasida o'xshatishlarning sintaktik tuzilishi, uslubiy xususiyatlari haqida to'xtalgan. M.Yo'ldoshev esa o'xshatishlarni lingpoetik jihatlarini tahlil qiladi. 1989 yilda D.Xudoyberganova o'xshatishlarning stilistik xususiyatlari tadqiqi aks etgan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Unda o'xshatish asosi sifat va fe'l bilan ifodalangan o'xshatish qurilmalari tahlil etilgan. M.Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlaridagi o'xshatishlarni tutgan o'rniga e'tibor qaratgan. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning antropotsentrik tadqiqi bo'yicha dastlabki tadqiqot sifatida N.Mahmudovning "O'xshatishlar - obrazli milliy tafakkur mahsuli" maqolasini qayd etish lozim. Farhod Usmonovning "O'zbek tili o'xshatishlarining lingvomadaniy tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiyasini e'tirof etish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada tilshunoslikning qiyosiy-chog'ishtirma, tavsifiy, komponent tahlil, sistem, lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlaridan biri, ularda milliy baholash tendensiyasi kuchli bo'ladi. Til orqali nafaqat olam manzarasi nomlanadi, balki unga munosabat ham bildiriladi, baholanadi. Inson o'zini, o'zining tanasini, ruhiyatini muayyan rang bilan bog'lar ekan, mazkur holatni baholash maqsadi, ehtiyoji bo'lsa, bunda o'xshatishlardan foydalanadi. Masalan, yuzning nojo'ya ta'sirlar oqibatidagi oqarishini *devorday, dokaday, bo'zday, murdaday*

o'xshatishlari bilan berish mumkin. *Yuzning dokaday oqarib ketishi* jumlasida *yuzning juda ham oqarib ketishi* jumlasidan semantik, pragmatik, milliy-mental, lingvopoetik xususiyatlari bilan boyroqdir. Bunda ma'no o'xshatish etaloni bo'yicha aniq tasvirlanmoqda, ya'ni oq rangning darajasi dokaga qiyos qilinib, aniq rang tasavvur qilinadi. Yana yuz oqarishining me'yordan ortiqligi anglashiladi, tinglovchiga holat ishonchli etkaziladi. "Doka" etaloni orqali ifodalangan yuz xususida o'zbek millatida salbiy baho munosabati anglashiladi. "Doka" obrazi orqali jumla badiiylik kasb etadi. Doka o'zbek lingvomadaniyatida alohida o'z o'rniga ega bo'lgan etalonlardan biri bo'lib, *er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi* kabi maqol, xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'p uchraydi.

Insonning tashqi ko'rinishidagi, xususan, yuzdagi oqlik, oqqa moyillik o'xshatishlar bilan ifodalanar ekan, bunday o'xshatishlarni konnotativ ma'nosiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

1. Ijobiy semantikali o'xshatishlar.
2. Salbiy semantikali o'xshatishlar.

Yuzning oqligi bilan bog'liq ijobiy semantikali o'xshatishlarga *sutdek, sutga chayilgandek* o'xshatishini misol qilish mumkin. Ma'lumki, sut o'zbek xalqining predmetli kodlaridan biridir. Ajdodlarimiz chorvachilik bilan shug'ullangan, sut xalqimizning doimiy, hammabop oziq-ovqat mahsuloti sanaladi. Har bir xonadonda chorva mollari boqilgan bo'lib, sut mahsulotlari bilan oila ta'minlangan. Sut o'zbek tili egalarida doimo oq rang bilan assotsiatsiyalangan. *Og'zimiz oqqa etdi, oqlik, oq sut haqi* kabi nominatsiyalar fikrimizning dalilidir. Shu sabab yuz rangining me'yordan ochligi sutning rangiga o'xshatiladi va bunday o'xshatishlar gender xususiyatga ega bo'lib, ayollarga nisbatan qo'llanadi. Odatda o'zbek ayolining rangi xuddi sutning rangidek bo'lmaydi. Lekin o'xshatishlarda mutloq o'xshashlik bo'lmasligi ma'lum. O'xshatilayotgan ikki obyekt qaysidir jihatida bilan bir-biriga to'liq yoki qisman o'xshashi mumkin. O'xshatish aslida kognitiv jarayon. Olamda ikkita bir xil narsaning o'zi bo'lmaydi. Hatto ikki tomchi suv ham bir-biri bilan aynan o'xshash emas. Lekin aqliy bilishning yo'llaridan biri

taqqoslash, qiyolashdir. Inson ongi noma'lum mohiyatlarni ma'lum mohiyatlarga taqqoslaydi, qiyoslaydi, umumiy va farqli jihatlarini ajratadi. Muayyan umumiyliklarga asoslanib, o'xshatish jarayoni amalga oshadi. Ma'lum bir o'xshatishlarda umumiy belgilar ko'proq, ayrimlarida kamroq bo'lishi mumkin. O'xshatilayotgan obyektlar, o'xshatish etalonlari esa turg'un o'xshatishlarda xalqning milliy dunyoqarashi bilan shartlangan bo'ladi.

O'zbek tilida oq rangni salbiy baho munosabati bilan birga ifodalovchi o'xshatishlar ham anchagina bo'lib, ularda insonning doimiy rangi emas, asabiylashganda, qo'rqqanda, kasal bo'lganda oqroq tusga kiruvchi rangi nomlanadi. Mazkur o'xshatishlarga *bo'zday*, *devorday (kabi, yanglig')*, *dokaday*, *murdaday* kabi turg'un o'xshatishlarni kiritish mumkin. Murdaday o'xshatishi eng salbiy konnotatsiyaga egaligi bilan ajralib turadi. Unda inson rangining me'yordan ortiq darajada o'zgarishi nazarda tutiladi: *Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqargan edi (A. Qodiriy. O'tkan kunlar).*

O'zbek xalqida devorlarni bo'yash uchun ohak ishlatilgan. Ohak esa oq rangda bo'ladi. Inson qattiq asabiylashganda, kuchli darajada qo'rqqanda rangining oqarib ketishi bilan qotib qolishi, garangsifat bo'lib qolish holati uchraydi. O'sha paytda u hech narsani eshitmay, anglamay qolishi mumkin. Devor ham qimirlamaydigan oq rangli obyekt ekanligi o'xshatish uchun asos bo'lgan: *Rangi devorday oppoq bo'lib, qo'li ko'ksida, yarim bukilganicha meni kuzatib koldi (S. Kokilov. Jahli tez odam).*

Rus tilida ham *белая как стена* o'xshatishi kasallikdan, kutilmagan ruhiy zarbadan yuzning oqarib ketishini ifodalaydi. Har ikki tildagi ushbu o'xshatish anglatayotgan ma'nosi, qo'llanishi bilan bir-biriga muqobildir.

Bo'zday o'xshatishida esa madaniy kod ishtirok etgan. Bo'z qadimdan o'zbek millatining asosiy matolaridan biri hisoblanib, kambag'allarning asosiy kiyim-boshi sanalgan. So'fiylar ham bo'zdan kiyim kiyishgan va bu haqida klassik adabiyotda juda ko'p yozilgan. Bo'zdan yana qoplar, iplar, arqonlar, dasturxon,

sifatida foydalanilgan. Uning rangi tiniq oq bo'lmaydi va bu rang kishi kasal bo'lganda rangning oqarib ketishiga o'xshatiladi.

Rus tilida ham yuzning oq rangini bildiruvchi o'xshatishlarda sog'lom va patologik holat farqlanadi. Yuzning doimiy oq rangi uchun *белое (лицо)* so'zi qo'llansa, patologik holatdagi oqlik, oqarishga esa *бледное (лицо)* ishlatiladi.

Insonning kasallik, hayajon, qo'rquv holatida yuzning oqarib ketishi rus tilida bir qator o'xshatishlar orqali tasvirlanadi. *Как бумага* o'xshatishi qo'rquvdan, hayajondan yuzi oqarib ketgan insonga nisbatan qo'llanadi: *Она снова плакала, теперь уже от радости – она не на шутку перепугалась, от переживаний не могла ни есть, ни спать, вся дрожала и выглядела бледной и слабой, только глаза казались ещё больше на белом как бумага лице. (Сергей и Дина Волсини. Алина, 2014).*

Как (гипсовая маска) o'xshatishi esa noodatiy oqarib ketgan harakatsiz yuzni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu odatda juda ham me'yordan ortiqcha bo'yangan ayollarning yuzlari uchun qo'llanadi. *Как мрамор* esa oppoq rangli badan yoki teri rangi uchun ishlatiladi. *Как воск, как мел, как мука, как платок, как полотенце, как полотно, как рубашка, как скатерть, как стена, как смерть, как у покойника, как у мертвеца* o'xshatishlari kasallik, qo'rquv yoki kuchli hayajonlanish natijasida yuzaga kelgan yuzning oqarishini turli darajalarda tasvirlaydi:

Его испуганные глаза казались стеклянными шарами, вставленными в белое как воск лицо. (С.Кириченко);

И белый как мел солдат, плача от тоски, от ужаса, тыкал в дверь дулом ружья и беспомощно кричал: (Андреев Л.Н);

— А другой-то австрияк, с ним был, словно мелом вымазан. Как мука, белый. (Толстой Л.Н.);

Родимая с минуту молчала, вся, как платок, бела, говорить со мной словно боится. (Достоевский Ф);

Среди комнаты стояла Лизавета, с большим узлом в руках, и смотрела в оцепенении на убитую сестру, вся белая как полотно и как бы не в силах крикнуть. (Достоевский Ф).

Kam uchrasada, rus tilida yana белая как сметана, белый как сыр o'xshatishlari borki, ular ham yuzning to'satdan oqarib ketishini ifodalaydi. Как сметана o'xshatishi "Устойчивые сравнения русского языка" lug'atida berilmagan, БСНС lug'atida esa uning 2 ta ma'nosi qayd etilgan: birinchi ma'nosi "Одобр" pometasi bilan chiroyli qizning oppoq yuzini tasvirlashi, ikkinchi ma'nosi esa "Неодобр" pometasi bilan inson yuzining juda oqargan rangini ifodalashi qayd qilingan [2:629]. "СУСПР" lug'atida esa umumiy tarzda inson yuzining oq rangi haqida degan tushuntirish berilgan [3:45]. Demak, как сметана o'xshatishi inson yuzining oq rangini ifodalaydi. Uning salbiy va ijobiy baho anglatishi kontekstga bog'liq bo'ladi. Agar mazkur o'xshatish yuzning sog'lom, tabiiy oqligini ifodalasa, ijobiy semantika vujudga keladi va qo'llanishda ham ayollarga xos gender xususiyatga ega bo'ladi. Qo'llanishning yosh tavsifi ham borki, u ko'proq yosh va o'rta yosh ayollarning yuz, badan rangi uchun ishlatiladi: *Вот и хожу белая как сметана, рыжая и кареглазая. (Адриана Сувор).*

Agar как сметана o'xshatishi patologik holatda yuzning oqarishini ifodalasa, unda salbiy ottenka vujudga keladi va qo'llanishdagi gender, yosh jihatdan o'ziga xosliklar kuzatilmaydi.

Как лилия o'xshatishi oliyzoda ayollarga xos bo'lgan yuzning oqligini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, rus tilida yuzning oqqa moyil rangini ifodalovchi o'xshatishlardan faqatgina как лилия turg'un o'xshatishi ijobiy semantikaga ega: **Белое** — бело, **как** крылья архангела или **как** цветок **лилии**, красное — красно, **как** огонь. (Куприн А.И.)

Как мрамор o'xshatishi esa neytral baho munosabatiga ega. Uning ijobiy yoki salbiy ma'no ifodalashi kontekstda aniqlanadi.

Как молоко o'xshatishi ham juda ham (noodatiy) oq yuzga nisbatan qo'llanadi. Белое как молоко o'xshatishi o'zbek tilidagi sutdek oppoq o'xshatishi

bilan o'xshatish etaloni nuqtai nazaridan bir xildir. Lekin o'zbek tilida *sutdek oq* ayollarning oq tusga moyil chiroyli yuzini anglatishini hisobga olsak, u semantik jihatdan rus tilidagi *как лилия* o'xshatishiga muqobildir. *Как молоко* o'xshatishi ko'p ma'noli bo'lib, rangning juda ham oqligini, u inson yuzining juda ham noodatiy oqligini, quyuq oq tumanning rangini bildiradi [3:399].

Как стена va *devorday*, *как мертвец*, *как покойник* va *turdadek* kabi o'xshatishlar esa har ikki tilda ham mavjud bo'lib, anglatayotgan ma'nosi, o'xshatish predmeti, konnotativ va aksiologik qarashlari ham aynandir.

Как платок, *как полотенце*, *как полотно*, *как рубашка*, *как скатерть* o'xshatishlari o'zbek tilidagi *bo'zdek* o'xshatishiga monand xalqning asosiy matolari va undan tikilgan narsalarning rangi asosida shakllangan.

Rus tilida fitonim etaloni asosida shakllangan *как лилия* o'xshatishi, milliy eguliklar bilan nomlangan *как творок*, *как сметана*; yoki *как (гипсовая) маска*, *как мрамор (мраморное)* kabi o'xshatishlar o'zbek tilida muqobiliga ega emas.

Rus xalqining irqiy o'ziga xosliklaridan biri soch va soqollarning och rangli ekanligidir. Shu bois soch, soqolning oq rangi ham ikki xil mohiyat kasb etadi. Asli tabiatan oqish rangli soch va soqollar hamda yoshning ulg'ayishi bilan oqargan soch va soqollar rangi farqlanadi. Rus tilida “*как лень*” o'xshatishi odatda tabiatan oqish, och randagi nozik, yumshoq sochlar tasvirlashda qo'llanadi va ijobiy semantikaga ega: *Красавица, белая, как молоко, а волосы — лен. (Горький Максим)*.

“*Как лун*”, “*как серебро*”, “*как снег*” o'xshatishlari esa oqargan sochlarning rangini ifodalaydi. *Как серебро*, *как снег* o'xshatishi o'zbek tilidagi *kumushday*, *qorday* o'xshatishi bilan aynandir. *Как лун* o'xshatishi esa rus tilining o'ziga xos o'xshatishi bo'lib, oqargan sochlar qushning rangiga o'xshatiladi. Ushbu qush nomi bog'liq yana bir qator o'xshatishlar borki, uni zoomorf kod deb belgilash mumkin: *большеголовый как лунь*, *глухой как лунь*, *лохматый как лунь*, *лысый как лунь* [4:362].

Rus tilida hayvonlarning oq rangini ifodalovchi *как лебедь, как енок, как заяц* kabi o'xshatishlari mavjud bo'lib, *как лебедь* o'xshatishi odatda chiroyli oppoq otlarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, ayrim matnlarda sarvqomat oppoq ayollarga nisbatan qo'llanishi ham kuzatiladi.

XULOSALAR:

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek va rus tillarida oq rangni ifodalovchi o'xshatishlar juda ko'p. O'zbek tida oq rangni ifodalovchi o'xshatishlarda ko'proq ijobiy konnotatsiya aks etadi. Salbiy konnotativ ma'no anglatgan *bo'zdek, murdadek, devordek* kabi o'xshatishlarda esa kasallik yoki kuchli ruhiy zarba orqali yuzaga kelgan yuzning oqarishi ifodalanadi. Rus tilida ham insoni yuzining oqligi go'zallik ramzi sifatida va uning kasallik yoki zo'riqish orqali oqarib ketishi bir qator o'xshatishlar orqali obrazli tasvirlanadi. Har ikki tilda ham oq bilan bog'liq o'xshatishlarda rangdan boshqa "pokiza", "beg'ubor" kabi mavhum tushunchalar ham anglashiladi.

Адабиётлар:

1. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: Маънавият, 2013. – 320 б.
2. Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. – М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008.
3. Огольцев, В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка / В.М. Огольцев. – М., 2001.
4. Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. -Тошкент, 2020